

"O'QUVCHI NEGA O'ZLASHTIRMA YDI?"

Maktabgacha va Maktab Ta'lumi Vazirligiga qarashli Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 93-sonli mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Raxmatova Maloxat Izatullayevna

Kalit so'zlar: motivatsiya, audio, psixologiya, san'at, idrok.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari xulq-atvoriga xos xususiyatlaridan biri ularning har bir ishga zo'r qiziquvchanlik bilan kirishishlaridir. Bu yo'lda ozgina qiyinchiliklar paydi bo'lsa ularning bu qiziquvchanliklari darror so'na boshlaydi. Natijada bu ularning qobiliyatiga, bilim olishiga, o'qishiga, ilm o'rganishiga salbiy ta'sir etadi. Biz o'qituvchilar va ota-onalar bunday oqibatlarni oldini olishimiz kerak. Bolaning past o'zlashtiruvchilar safiga kirib qolishiga bir tomonidan diqqati, xotirasi, tafakkuri yetarli darajada rivojlanmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomonidan ijobiy o'quv motivatsiyasining yo'qligi sabab bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligidagi diqqat ixtiyorsiz bo'ladi. Bu yoshda ularda yangi narsalar taassuroti kuchli bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqat o'qish davomida maktabga rivojlanib boradi. 1-4-sinflarda diqqat bolaning o'zlashtirishiga ko'ra har xil rivojlanadi.

Kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarda xotira maktabgacha yoshdagilarga nisbatan ancha keng bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchilari esda qolganlarini so'zma-so'z aytib berishni yoqtiradilar. Buning uchun "esda saqlash" mashqlarini o'rgatamiz:

1. Yozma ravishda bajariladi:

a) mактаб; b) o'qish; d) Vatan; e) askar; f) san'at; g) gar bir mavzu uchun 5 daqiqaga beriladi. 7-9 yoshli bolalar o'rtacha 7 ta so'z keltiradi; h) eshitish xotirasini rivojlantirish. Audio yordamida 10 ta so'z aytildi. O'quvchi esda qolganini daftariga yozadi (hech bo'lmaganda 4 ta so'zni esda qolishi zarur). Masalan: zamin-inoq-oqil. So'ngra o'qituvchi tovush chiqarib 3 ta so'zdan iborat 5 qatorni o'qib beradi. O'qish bo'lgandan so'ng o'quvchiga bo'sh tarqatmalar

qtarqatiladi. Agar o'quvchilar ushbu so'zlarda 3-4 tasini eslab qolib tarqatmaga yozsa esda saqlash qobiliyati qoniqarli hisoblanadi.

Ko'z-kitob-bilim; ko'priq-daryo-suv; daryo-baliqchi; bahor-gullar-Navro'z;
Ustoz-shogird-aql

O'z tajribamdan kelib chiqib shuni aytmoqchimanki, birinchi sinf o'quvchilar o'xshash harflar va sonlarni maqtay olmaydilar. Masalan: Alifboden b, d, p, g, g'; Matematikadan. 6 va 9 sonlarini. Ularning bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun o'shash jismlarni solishtirishga ular orasidagi farqlari topishga o'rgatish lozim. Bolaga ixtiyoriy idrokning rivojlanishida so'z katta ahamiyatga ega. Nemis psixologi Shteri . Rasmlardan foydalanishda o'quvchilardagi idrokni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- sanash, hisoblash; (5-7 yosh)
- yozish, rasm; (7-9 yog')
- tahlil qilsh yoki tushuntirish: (9-11 yosh).

Yuqoridagi qoidalarga amal qilsak, o'zlashtirmaslikning oldini olishga yaxshi natijalarga ershamiz.